

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATAN TALQINI

Jo‘rayeva Nargiza

*Termiz davlat universiteti akademik litseyi
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodida Vatan tushunchasining poetik ifodasi, uning milliy g‘urur, sadoqat va erkinlik bilan bog‘langan talqini tahlil qilinadi. Shoirning “Vatan”, “Ulug‘imsan, Vatanim”, “Ketma, bola”, “O‘zbekiston” kabi she’rlaridagi Vatanga bo‘lgan chuqur muhabbat va fidoyilik ruhi ohib beriladi. Maqolada Muhammad Yusuf she’riyati orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otish, ularni yurtga sadoqatli bo‘lib ulg‘ayishiga hissa qo‘sish kabi jihatlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, Vatan, she’riyat, istiqlol, milliy g‘urur, fidoyilik, O‘zbekiston, Vatanparvarlik.

O‘zbek adabiyotida Vatanga bo‘lgan muhabbat doimo yetakchi mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, istiqlol yillarida bu mavzu yangicha mazmun va ma’no kasb etdi. Muhammad Yusuf o‘zining samimiyligi, ta’sirchan va yurakdan chiqqan she’rlari orqali Vatan tushunchasini xalq qalbiga yanada yaqinlashtirdi. Uning ijodi – xalqning yuragida kechgan his-tuyg‘ularining badiiy ifodasidir.

Vatan – inson uchun eng aziz maskan. U insonning tug‘ilib voyaga yetgan joyi, go‘daklik xotiralari bog‘langan uy o‘chog‘i, mahallasi va yurtidir. “Vatan” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, u tug‘ilgan yurti, ona zamin ma’nosini anglatadi. Vatanni sevish esa oliy insoniy fazilat sanaladi. Bu borada mashhur ibora: “Vatanni sevmoq imondandir” degan hikmat bejiz aytilmagan.

Vatanga bo‘lgan muhabbat odamzod qalbida joylashgan bo‘lib, u muayyan hudud, davr yoki sharoit bilan bog‘lanmaydi. Vatan sovuq muzliklar, jazirama sahrolar yoki quyuq o‘rmonlar ham bo‘lishi mumkin. Bu tuyg‘u inson bilan birga tug‘ilib, hayot yo‘li tugaganida nihoyasiga yetadi. Vatanni sevish tuyg‘usi go‘daklikdan, ona suti bilan qalbga singadi.

Ona yurtdan faxrlanish va uni madh etish o‘zbek adabiyotida qadim-qadimdan mavjud bo‘lgan an’adir. Yurtimizning taniqli ijodkorlari – Usmon Nosir, Cho‘lpon, Hamid Olimjon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlarning asarlarida Vatanni ulug‘lash, unga sadoqat bilan qarash asosiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Bugungi avlod ijodida ham bu yo‘nalish izchil davom ettirilmoqda.

Xususan, Muhammad Yusufning she’riyatida Vatanga bo‘lgan muhabbat chuqur ifoda etilgan. Uning “O‘zbekiston”, “O‘zbek”, “Vatan madhi”, “Mening Vatanim”,

“Men nechun sevaman O‘zbekistonni” kabi she’rlari aynan shu ruhda yozilgan. Shoirning asarlarida sof samimiyat, xalqona ruh va o‘ziga xos lirizm kuchli aks etgan. U Vatanni “yuragining Olampanohi” deb atagan va doimo jo‘shqin tuyg‘ular bilan kuylagan. Muhammad Yusuf chin ma’noda Vatan kuychisi hisoblanadi. Uning nazarida Vatanni sevish – unga sadoqat bilan xizmat qilish, fidokorlikka tayyor turish demakdir.

Xalq, haqiqat va nafosat o‘lmaydi va bularni ardoqlagan, kuylagan ulug‘lar ham mangudirlar. Ular hamisha avlodlar dili va tilida barhayot, shu minnatdor avlodlarning ezgu intilish va ishlarida madadkordir, deydilar. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf ham hayoti davomida mana shunday ezgu maqsadni amalga oshirish baxtiga musharraf bo‘ldi. Shoir hayotining mazmuni, betakror ijodiy faoliyatining asosiy ma’nosi – Vatanga muhabbat degan oliv qadriyatdan iborat bo‘libgina qolmadi, hayot shodliklari, sevgi va sadoqat, ilm-ma’rifat, xalqimizni azalazaldan ajoyib odatlaridan bo‘lgan go‘zallikni ardoqlash, onani sevish, unga hurmat ko‘rsatish, tabiatdan bahra olish, eng asosiysi, inson shaxsiga bo‘lgan mehr-muhabbat mavzulari haqida ham kuylash otashnafas ijodkor she’riyatida rangin jilolari bilan o‘z ifodasini topdi. Shu bilan birga, Muhammad Yusuf o‘z she’rlarida kitobxonlariga bir necha ming yillik tariximizning shonli farzandlari haqida hikoya qildi.

Shuningdek, Muhammad Yusuf uchun Vatan – bu faqat geografik makon emas, balki tarix, ona til, ota-bobolar merosi, xalqning g‘ururi va kelajagi bilan bog‘liq muqaddas tushunchadir. Shoirning “Ulug‘imsan, Vatanim” she’rida shunday misralar bor:

Ulug‘imsan, Vatanim,
Ko‘ksimda barhayotsan,
Tilim, dilim, yuragim —
O‘zingsan, Vatanim!

Bu misralarda shoirdagi Vatanga bo‘lgan beg‘ubor muhabbat, sadoqat va faxr kuchli lirizm bilan ifodalangan. Vatan uning nafaqat yuragida, balki tilida, ongida, butun borlig‘ida yashaydi.

Shoir o‘z asarlarida tashbeh, tazod, talmeh kabi badiiy san’at vositalaridan ustalik bilan foydalangan. Bu esa uning she’rlarini yanada jozibador va ta’sirchan qiladi. Tashbeh – o‘xshatish orqali ifoda kuchaytiriladi, tasvir chuqurlashadi. Muhammad Yusuf asarlarida o‘xshatishlar nafis, noan’anaviy bo‘lib, ular boshqa ijodkorlarda deyarli uchramaydi.

Yaratuvchining bizga O‘zbekiston kabi go‘zal yurtdan Vatan qilgani ne’matlarning eng ulug‘idir. Shoirning Vatan haqidagi o‘xshatmalar shunchalik o‘ziga xoski, ular orqali O‘zbekiston tasviri yurakka yaqin, samimiy va beqiyos go‘zallikda namoyon bo‘ladi.

Muhammad Yusufning ijodida Vatan faqat sevgi emas, balki mas’uliyat hamdir. Shoир o‘z she’rlari orqali yoshlarni Vatanni sevishga, uni himoya qilishga, uning kelajagiga befarq bo‘lmashlikka chorlaydi. “Ketma, bola” she’rida bu jihat ayniqsa teran ifoda etilgan:

Ketma, bola, ketma, bola,
Ko‘zlariningda o‘tinch yurak.
Sen ketgan kun, yuragimga
Ko‘chib o‘tadi g‘urbat.

Bu she’r ona-Vatanning farzandlariga qilgan iltijosi, ularning ketishiga chidab bo‘lmash iztirobi sifatida o‘qiladi.

Istiqlol va erkinlik ruhi

Shoirning ijodida istiqlol g‘oyasi alohida o‘rin tutadi. Muhammad Yusuf istiqlolni Vatanning eng ulug‘ ne’mati deb biladi. Uning she’riyati orqali erkinlik ruhi, milliy qadriyatlariga sadoqat, Vatan obodligiga intilish tuyg‘ulari keng targ‘ib qilinadi.

Muhammad Yusufning har bir she’rida milliylik ruhi, xalqona donishmandlik, o‘zbek tilining go‘zalligi va boy ifoda imkoniyatlari, xalqimizning yuksak insoniy fazilatlari o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga, uning ijodida yoshlik zavqi, muhabbat va ishq tuyg‘ularining nafis ohanglari ham yuksak darajada aks etgan. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek, Muhammad Yusuf xalq dardini ochiq aytgan, yurtga bo‘lgan muhabbatini o‘ziga xos, hech kimga o‘xshamagan misralarda ifodalagan she’rlari orqali mashhurlikka erishgan. Uning kitoblarini odamlar do‘konlardan izlab topishga harakat qiladigan bo‘lishgan. Shoир hayoti esa uning she’rlarida davom etmoqda.

“Chinakam shoир yuragida sehrli qush doimo sayraydi”, degan iborani ko‘p eshitganmiz. Bu qush aynan Muhammad Yusufning yuragida joy olganiga ishonchimiz komil. Uning nigohi va chehrasidan hamisha latif bir kuy baralla yangrab turgandek edi. U Vatanini chin yurakdan, sidqidildan, manfaat ko‘zlamasdan sevar edi. Shu samimiy muhabbat natijasida uning she’riyati ham befarq va beg‘araz, samimiy ifodaga ega bo‘ldi. Bu sof qalb egasidan bizga ana shunday samimiy she’riyat meros bo‘lib qoldi, degan edi O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov.

Milliy adabiyotimizda Vatan mavzusida yozilgan asarlar ko‘p. Ularning har biri turli shakl va obrazlar bilan ifodalangan. Har bir ijodkor o‘z yurti haqida o‘ziga xos tarzda yozadi. Muhammad Yusuf esa Vatanga bo‘lgan munosabatini andozalarga tayanmay, yangicha yondashuv bilan ifoda etadi. U go‘zal tabiat yoki buyuk insonlarni sanab, she’r oxirida Vatanni sevishini aytish bilan cheklanmaydi. Aksincha, yuraginiнg eng nozik tuyg‘ularini yuraklarga kirib boradigan, inson qalbining eng chuqur qatlamlarini larzaga soladigan tarzda ifoda etadi.

Shu boisdan “Muhammad Yusuf – Vatan kuychisi” nomli hujjatli filmni suratga olishga qaror qildik. Ushbu film orqali shoirning hayoti, ijodi va badiiy mahorati

haqida hikoya qilinadi. Film talabalarning qalbida yurtga muhabbat, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga sadoqat kabi tuyg‘ularni uyg‘otishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Shuni ham aytish joizki, Muhammad Yusuf she’riyatining markaziy mavzularidan biri – Vatanga muhabbatdir. Shoir bu mavzuni yoritishda ozodlik, milliy qadriyatlar, xalq mentaliteti, muhabbat, tabiat manzaralari hamda urf-odatlarni asosiy vosita sifatida qo‘llaydi. Ayniqsa, uning vatanparvarlik ruhidagi she’rlarida ajdodlarga bo‘lgan hurmat alohida o‘rin egallaydi. Muhammad Yusufning Vatanga bag‘ishlangan asarlarida tarixiy shaxslar – buyuk sarkardalar, mutafakkirlar, ma’rifatparvarlar va ijodkorlar tilga olinadi, ularning hayoti va faoliyati madh etiladi. U o‘zini ulug‘ ajdodlar ishining davomchisi sifatida tasvirlaydi va yosh avlodni ham ana shu yo‘ldan borishga undaydi. Shoir she’rlarida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Cho‘lpon, Qodiriy kabi tarixiy shaxslarning siymolari yodga olinadi. Ba’zan birgina misra butun tarixiy davrni eslatadi yoki o‘quvchini tarixni yana bir bor o‘rganishga undaydi. Misol uchun:

Boburga ilinsang, menga qovun so‘y,
Cho‘lponni sog‘insang, meni quchoqla...

Ushbu satrlar haqida shoir Muhammad Ali shunday deydi: “Mana shu oddiy ko‘ringan misralarda shoir butun tarixni ifoda eta olgan.”

Shoirning hayoti va ijodini chuqur o‘rganish hamda uni yoshlar orasida keng targ‘ib qilish bo‘yicha rejalashtirilgan ishlanmalarimiz ko‘p. Jumladan, institutimiz axborot-resurs markazi huzurida Muhammad Yusuf ijodi va hayotini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus Adabiyot ilmiy markazi va auditoriya tashkil qilinadi. Shu bilan birga, bu markazda o‘zbek adabiyotining boshqa namoyandalari hayoti, ijodi va asarlarini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan adabiyot to‘garagi faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari, vatan obraziga milliy til, bayroq va diniy qadriyatlar timsoli sifatida yondashish odat tusini oldi.

Aynan shu davrda Muhammad Yusuf kabi shoirlar yetishib chiqdi. Uning she’riyatidagi Vatan obrazi o‘quvchiga juda yaqin, samimiyligi va tushunarli ko‘rinadi. Shoir Vatanni oddiy, tanish narsalar – turmush buyumlari yoki yaqin insonlar orqali tasvirlaydi, bu esa obrazni yanada jonli va hayotiy qiladi. Muhammad Yusufning dostonlari esa ilmiy-ma’rifiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, tarixiy voqealarni badiiy tahlil etish orqali milliy ongni mustahkamlashga xizmat qiladi. U voqealarni shunchaki bayon qilish bilan cheklanmaydi, balki tarixiy shaxslar hayoti orqali xalq xotirasida ularni abadiylashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham uning dostonlarini Vatanning she’riy tarjimayi holi deb atash mumkin.¹

¹ Muhammad Yusuf. Saylanma: she’rlar. dostonlar. xotiralar. – T.: “Sharq”, 2007.-288. 6.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf ijodi Vatanni sevish, uni qadrlash, sadoqat bilan xizmat qilish ruhida yaratilgan. Uning she’rlari nafaqat badiiy qiymatga ega, balki yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Shoир o‘zining samimiу, chuqur mazmunli she’rlari orqali xalq qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbatni yanada kuchaytirdi. Bugungi kunda ham uning ijodi yoshlарimizга vatanparvarlik, sadoqat va fidoyilik namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirvaliyev S., Shokirov R. O‘zbek adiblari. - Toshkent, 2007. - B. 240. 10.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 12.
3. Boltaboyev. So‘z sehri. - Toshkent, 2006. - B. 98.
4. O. Sharofiddinova “Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida”. – Toshkent. “Adib”. 2014, 232b.
5. Muhammad Yusuf. Saylanma: she’rlar. dostonlar. xotiralar. – T.: “Sharq”, 2007.- 288 .6.